

## TERAPEVTIK STOMATOLOGIYADA BEMORLARNI QO'SHIMCHA TEKSHIRISH USULLARI (PARAKLINIK USUL)

**Axmedova Malika Qilichovna**

Osiyo xalqaro universiteti assistenti.

**Neymatov Dilshodbek Behzodovich**

Osiyo xalqaro universiteti

Tibbiyot fakulteti ikkinchi bosqich talabasi

Buxoro, O'zbekiston

**Email:** [malikaaxmedova855@gmail.com](mailto:malikaaxmedova855@gmail.com).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14633157>

**Annotatsiya.** *Terapevtik stomatologiyada bemorlarni to'g'ri tekshiruv o'tkazilmasligi va taxshish to'g'ri qo'yilmasligi oqibatida bemorlarda bir qancha yatrogen kasalliklar kelib chiqadi.*

*Buni oldini olish va bemorlarga to'g'ri taxshish qo'yish va davolash rejasini to'g'ri ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bunda bemorlarni tekshiruv usullari to'liq va ketma-ketlikda amalga oshirish talab etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Bemor, tekshirish usullari, yallig'lanish, rentgen, termodiagnostika, sinamalar, og'iz bo'shlig'i, davolash, og'riq, pulpa, gigiyenik indeks.*

### METHODS OF ADDITIONAL EXAMINATION OF PATIENTS IN THERAPEUTIC DENTISTRY (PARACLINICAL METHOD).

**Abstract.** *In therapeutic dentistry, a number of iatrogenic diseases occur in patients due to improper examination and diagnosis. It is important to prevent this and correctly diagnose patients and develop a treatment plan. This requires the full and sequential implementation of patient examination methods.*

**Keywords:** *Patient, examination methods, inflammation, X-ray, thermodiagnosics, tests, oral cavity, treatment, pain, pulp, hygienic index.*

### МЕТОДЫ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБСЛЕДОВАНИЯ БОЛЬНЫХ В ТЕРАПЕВТИЧЕСКОЙ СТОМАТОЛОГИИ (ПАРАКЛИНИЧЕСКИЙ МЕТОД).

**Аннотация.** *В терапевтической стоматологии у пациентов возникает ряд ятрогенных заболеваний вследствие неправильного обследования и диагностики. Важно предотвратить это, правильно диагностировать пациентов и разработать план лечения. Для этого необходимы полные и последовательные процедуры обследования пациентов.*

**Ключевые слова:** *Пациент, методы обследования, воспаление, рентгенография, термодиагностика, тесты, полость рта, лечение, боль, пульпа, гигиенический индекс.*

Harorat tashxisi (Termodiagnostika) – Terapevtik stomatologiyada keng qo'llaniladigan usullardan biri, harorat ta'sirlovchilariga nisbatan tish reaksiyasini aniqlash, tish pulpasi holatini aniqlash uchun qo'llaniluvchi eng qadimgi fizik tekshirish usullaridan biri hisoblanadi. Tishlar issiq va sovuqqa ta'sirchanlikka ega. Adekvat reaksiya- isitish va sovtutish munosib sezgi chaqirishi pulpani normal holatidan darak beradi. Yallig'lanish jarayonida indifferent zona torayishi va tana haroratidan uncha sezilarli farq qilmagan ta'sir ( $5-7^{\circ}$ ) natijasida davomli intensiv yoki og'riq yuzaga keladi. Ta'sirlovchi sifatida sovuq suv, quruq muz yoki dixloroformetan, efir (sovuq ta'sirlovchilar), issiq suv yoki qizdirilgan gutta-percha (issiq ta'sirlovchilar) ishlatiladi.

Ta'sirlovchi tishning pulpaga yaqin (bo'yin qismiga yaqin) sohasiga ta'sir etiladi. Odatda pulpaning issiqlikka ta'sirlanish bo'sag'si juda yuqori, shuning uchun bu usul noaniq.

Termometriya natijasiga dentinni qalinligi, mavjud o'rinbosar dentin va organizm individual sezgirligi ta'sir qiladi. Tish pulpasi nekrozga uchragan bo'lsa, termik ta'sirlovchilarga javob bermaydi, ko'p davom etuvchi og'rik pulpitdan, tez utuvchi og'rik kariesdan dalolat beradi.

Kurak tishlarning indifferent sohasidagi  $30^{\circ}$  temperaturada sog'lom tishda reaksiya yo'q ( $50-52^{\circ}$  issiqqa sezgir,  $17-22^{\circ}$  sovuqqa).

Elektroodonto diagnostika (EOD) -tish pulpasi va uni o'rab turuvchi to'qimalar holati haqida to'liq ma'lumot beradi. Pulpa normal va patologik holatdagi elektr sezuvchanligi aniqlangan. Sog'lom tishlar 2-6 mkA tok kuchi sezuvchanligiga ega. Elektr qo'zg'aluvchanligining 20-40 mkA gacha pasayishi pulpada patologik jarayon borligini bildiradi. 60mkA gacha pasayishi toj pulpasi nekrozlanganini ko'rsatadi. Agar ildiz pulpasi ham nekrozlansa, u holda tish 100 mkA va undan yuqori tok kuchini sezadi. Periodontdagi yaqqol morfologik o'zgarishlarda tish 200mkA dan yuqori bo'lgan tok kuchini sezadi.

Lyuminessent tashxislash usuli to'qima va hujayralarning ultrabinafsha nurlar ta'siri ostida o'z tabiiy rangini o'zgartirishiga asoslangan. Uni plomba qirrasining o'tkazuvchanligini aniqlashda, boshlang'ich karies, til va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini aniqlashda qo'llash mumkin.

Rentgen tekshiruv usuli – juda keng tarqalgan, ba'zida tashxis qo'yish uchun to'liq kafolat beradigan tekshiruv usuli hisoblanadi. Har kunlik stomatologiya amaliyotida kasallik tashxisi va davolash effektivligini baholash uchun qo'llaniluvchi yetakchi usul. Dinamikada bajarilgan rentgenogramma yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Rentgenologik tekshiruv usullari quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ Og'iz ichi va og'iz tashqarisi rentgenografiyasi;
- ✓ Rentgenografiya;
- ✓ Stereorentgenografiya;
- ✓ Tomografiya;

- ✓ Panoram rentgenografiya;
- ✓ Ortopantomografiya;
- ✓ Radioviziografiya;
- ✓ Kompyuter tomografiyasi.

Rentgenografiya tishlar va yuz-jag' sohasi suyaklar rentgenologik tekshiruvlarida keng qo'llaniladi. Ko'proq og'iz ichi rentgenografiyasi va ortopantomografiya qo'llaniladi.

Profilometriya. Profilometriya tekshirishning yangi usuli bo'lib oddiy uzunligi 1 mikrometrdan kam bo'lmagan infraqizil lazerni qo'llashga asoslangan. Tekshiriladigan tish lazer nurlari yordamida qizdiriladi va natijada tishning o'zi infraqizil diapazonida nur tarqata boshlaydi.

Bu nurlardan tibbiyot xodimi kompyuter yordamida tishning ichki strukturasi tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi.

Og'iz ichi rentgenogrammasini tahlil qilish usuli:

- ✓ Rentgenogramma sifatini baholash: kontrastlilik, ravshanligi, proeksion xatolik (tish uzayganligi, qisqarganligi) tekshirish sohasini to'liq qamrab olganligi;
- ✓ Tekshirish hajmini aniqlash: jag', tishlar guruhi;
- ✓ Tishlar tahlili: Toj holati-mavjud karioz kovak, plomba, plomba nuqsoni, karioz bo'shliq tubi va tish bo'shlig'i aloqasi;
- ✓ Tish bo'shlig'i tavsifisi- mavjud plomba ashyoi, dentikl; Ildiz holati – soni, shakli, uzunligi, konturi;
- ✓ Ildiz kanallari xarakteristikasi – kengligi, yo'nalishi, plombalash darajasi;
- ✓ Periodont yorig'ini baholash – bir xilligi, kengligi;
- ✓ Katakcha kompakt plastinkasi holati – saqlanganligi, buzilganligi, yupqalashganligi, qalinlashganligi;
- ✓ Atrof to'qimalarni baholash: Tishlararo to'siq holati – shakli, balandligi, kompakt plastinka holati;
- ✓ Mavjud suyak ichi qayta qurilmalari. Patologik soyalar tahlili (Destruksiya yoki osteoskleroz sohalari) – lokalizatsiyasi, shakli, o'lchami.

Sinamalar: Gistaminli sinama yoki gistaminli proba – organizmning allergik jarayonga reaksiyasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu jarayonni o'tkazish uchun gistaminni NaCl ning izotonik eritmasi bilan 1:1000 nisbatda tayyorlab, yelkaning old tomoniga ingichka shpris bilan 4mm kiritiladi. So'ng 10 daqiqadan keyin normada 5mm ga teng bo'lgan papula hosil bo'ladi.

Agar papula 20mm ga teng bo'lsa, organizm allergik jarayonlarga reaksiyasi musbat.

Vital bo'yash usuli. Bu usul emalning butunligini aniqlashga asoslangan. Vital bo'yash usulini o'tkazish uchun tekshirilayotgan tishning yuzasi karashlardan tozalanadi, quritiladi va tish yuzasiga 3 daqiqaga metilen ko'kning 2–3% suvli eritmasiga botirilgan tampon qo'yiladi.

Belgilangan vaqt o'tganidan so'ng tampon olib tashlanadi, tish yuzasi suv bilan yuviladi va emalning bo'yalish darajasi aniqlanadi. Emalning demineralizatsiya bo'lgan qismi och ko'kdan to'q zangori ranggacha bo'yaladi.

Og'iz bo'shlig'i gigiyenik indeksini aniqlash. Og'iz bo'shlig'i gigiyenik indeksini aniqlash kasallikni kelib chiqishi va kechishida muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Hozirgi kunda og'iz bo'shlig'i gigiyenik indeksini aniqlashning ko'pgina usullari mavjud. Fedorov-Voldkin usulini o'tkazish uchun 6 ta kesish tishlarning vestibulyar yuzasiga yo'did kaliy eritmasi surtiladi.

Tishlarni bo'yalish darajasiga qarab 5 balli shkala asosida baholanadi.

Ya'ni:

- tishning butun yuzasi bo'yalga – 5 ball;
- 3/4 qismi bo'yalga – 4 ball;
- 1/2 qismi bo'yalga – 3 ball;
- 1/4 qismi bo'yalga – 2 ball;
- Bo'yalmasa – 1 ball.

Indeksni quyidagi formula yordamida hisoblab chiqariladi.

$$TKI = \frac{6 \text{ ta tishning ko'rsatkichlari}}{6}$$

3 va undan ortiq ball bo'lsa og'iz bo'shlig'i gigiyenik holati qoniqarsiz, 0 ball bo'lsa qoniqarli hisoblanadi

Labarator tekshiruv usullari. Bemorlarga aniq tashxis o'rnatishda laboratoriya tekshirishlarini o'tkazish kerak bo'lib qoladi. Laboratoriyada tekshirish usullariga sitologiya, bakteriologik, biopsiya, immunobiologik tekshirish usuli, bioximik usul, qonning klinik analizlari va boshqalar kiradi.

Sitologiya. Sitologiya usuli hujayra elementlarini o'rganishga asoslangan.

Stomatologiyada sitologik tekshirish usuli uchun qirindi, punksiya mahsulotlaridan foydalaniladi. Sitologiya usuli yordamida o'sma kasalliklari, tuberkulyoz yazvalari, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi kasalliklarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Biopsiya. Patologik o'zgargan to'qimalarni sitologik tekshirishdan o'tkazish. Skalpel va maxsus asboblarda yordamida patologik o'zgargan qismdan 5–6 mm to'qima kesib olinadi va gistologik tuzilishni mikroskop ostida tekshiriladi.

Immunobiologik tekshirish usuli. Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining ba'zi kasalliklari tashxisini aniqlash uchun imunobiologik tekshirish usulidan foydalaniladi. Masalan zaxm, brutsellyoz kasalliklarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Bakteriologik tekshirish usuli. Bu usul kasallikni keltirib chiqargan mikroba va zamburug'lar turini aniqlash hamda ularni sezuvchanlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Sezuvchanligi yuqori bo'lgan dori vositalaridan foydalanish kasallikni tez davolanishiga zamin bo'ladi.

Bioximiya usuli. Bu usulda qon va peshobning tarkibida qand borligi aniqlanadi.

Ko'pincha bu usul og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi kasalliklari tez-tez qaytalaydigan bemorlarda, qandli diabet kasalligi bor yo'qligini aniqlashda yordam beradi.

**Xulosa:** Terapevtik stomatologiyada bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'yib davolash rejasini to'g'ri ishlab chiqish bemorning kasalligini erta tuzalishiga, har qanday yatrogen kasalliklar kelib chiqishini oldini olishga yordam beradi. Biz bu maqoladan xulosa qilib shuni aytamizki bemorga individual yondashish lozim loqaydlik tuzalmas xatolarga olib keladi.

## REFERENCES

1. Qilichovna, A. M. (2024). CLINIC FOR PATIENTS WITH DENTURES COMPARATIVE DIAGNOSIS AND PATHOGENESIS. *TADQIQOTLAR*, 30(3), 127-135.
2. Ahmedova, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITIONAL DISPARITIES AMONG PEDIATRIC POPULATIONS: A STUDY OF CHILDREN WITH DENTAL CAVITIES VERSUS THOSE IN OPTIMAL HEALTH. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 68-72.
3. Ahmedova, M. (2023). DIFFERENCES IN NUTRITION OF CHILDREN WITH DENTAL CARIES AND HEALTHY CHILDREN. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 42-46.
4. Axmedova, M. (2023). TISH KARIESINING KENG TARQALISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 200-205.
5. Ахмедова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭТАПАХ ДИАГНОСТИКИ И ПЛАНИРОВАНИЯ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭНДОССАЛЬНЫХ ИМПЛАНТАТОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 167-173.
6. Axmedova, M. (2023). USE OF COMPUTER TECHNOLOGY AT THE STAGES OF DIAGNOSIS AND PLANNING ORTHOPEDIC TREATMENT BASED ON ENDOSSEAL IMPLANTS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 54-58.
7. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69.

8. Axmedova, M. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(9), 24-28.
9. Ахмедова, М. К. (2024). ОБЩИЕ ПРИЧИНЫ КАРИЕСА ЗУБОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 77-85.
10. Qilichovna, A. M. (2024). CLINICAL SIGNS WHEN ACCOMPANIED BY DENTAL DISEASES AND METABOLIC SYNDROME. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 116-24.
11. Ахмедова, М. К. (2024). Профилактика Стоматологических Заболеваний У Беременных. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 66-72.
12. Ахмедова, М. К. (2024). ОСНОВНЫЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ТКАНЕЙ ПАРОДОНТА У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 254-260.
13. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL DISEASES IN CHILDREN AND TEENAGERS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 234-239.
14. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL AND GUM DISEASES IN PREGNANT WOMEN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 240-245.
15. Qilichovna, A. M. (2024). HOMILADOR AYOLLARDA TISH VA PARADONT KASALLIKLARINING OLDINI OLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 246-253.
16. Ахмедова, М. К. (2024). ИЗУЧЕНИЕ ПРИЧИННЫХ ФАКТОРОВ ПАРОДОНТИТА. *Journal of new century innovations*, 49(3), 47-53.
17. Qilichovna, A. M. (2024). TO STUDY THE FACTORS THAT CAUSE PERIODONTITIS. *Journal of new century innovations*, 49(3), 40-46.
18. Qilichovna, A. M. (2024). THE ROLE OF PATHOGENESIS IN THE GROWTH FACTORS OF PERIODONTITIS DISEASE. *Journal of new century innovations*, 49(3), 25-32.
19. Qilichovna, A. M. (2024). TISH KARIYESI BO'LGAN BOLALAR VA SOG'LOM BOLALARNING OVQATLANISHIDAGI FARQLAR. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 6(2), 213-223.
20. Ахмедова, М. К. (2024). РАЗЛИЧИЯ В ПИТАНИИ ДЕТЕЙ С КАРИЕСОМ ЗУБОВ И ЗДОРОВЫХ ДЕТЕЙ. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 6(2), 224-234.

21. Ergashevich, I. I., Bahronovich, B. F., & Qilichevna, A. M. (2024). ASTMATIK STATUSDAN BEMORLARNI CHIQUARISHNING ZAMONAVIY TAMOIYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 36-44.
22. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., & Ergashevich, I. I. (2024). THE ROLE OF CARIOGENIC AND PROTECTIVE FACTORS IN THE PREVENTION OF CARIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 45-51.
23. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., & Ergashevich, I. I. (2024). KARIYESNING OLDINI OLISHDA KARIOGEN VA HIMOYA OMILLARNING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 52-59.
24. Qilichovna, A. M. (2024). FACTORS CAUSING THE WIDE SPREAD OF DENTAL CARIES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 154-160.
25. Nematilloevna, X. M., & Qilichovna, A. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL CHANGES IN ACUTE FORMS OF APHTHOUS STOMATITIS: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 177-186.
26. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). METABOLIK SINDROMI VA QON BOSIMI BOR BEMORLARDA O'ZGARISH XUSUSIYATLARI BAHOLASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 187-196.
27. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). TIBBIYOT TILI HISOBLANMISH LOTIN TILINI SAMARALI O'RGANISH OMILLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 197-206.
28. Qilichovna, A. M., & Vahidovna, K. N. (2024). FACTORS CAUSING DISEASES OF PERIODONTAL TISSUES. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 196-201.
29. Qilichovna, A. M., & Abdumutalib o'g'li, U. A. (2024). KARIES PROFILAKTIKASI NAZARIYASI VA AMALIYOTI. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 202-209.
30. Vahidovna, K. N., & Qilichovna, A. M. (2024). FACTORS CAUSING PERIODONTAL TISSUE DISEASES. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 185-195.

31. Qilichovna, A. M. (2024). THEORETICAL FUNDAMENTALS OF CARIES PREVENTION. *Journal of Science in Medicine and Life*, 2(5), 222-226.
32. Qilichovna, A. M., & Safarboy o'g'li, T. S. (2024). 4-AVL0D ADGEZIV SISTEMA. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 307-313.
33. Axmedova, M. (2024). CONDITION OF THE ALVEOLAR PROCESS AND PERIOSTE WHEN USING REMOVABLE DENTURES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(11), 528-538.
34. Qilichevna, A. M. (2024). COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITIONAL DISPARITIES AMONG PEDIATRIC POPULATIONS: A STUDY OF CHILDREN WITH DENTAL CAVITIES VERSUS THOSE IN OPTIMAL HEALTH. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(2), 30-34.
35. Narzulaeva, U. (2024). PATHOGENETIC MODELS OF CHRONIC HEART FAILURE. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 3, Выпуск 12, сс. 154–157). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14557952>
36. Farida Farkhodovna, K. ., Umida Rakhmatulloevna, N. ., & Mokhigul Abdurasulovna, B. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 377–381. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1367>
37. Numonova, A., & Narzulayeva, U. (2023). EPIDEMIOLOGY AND ETIOPATHOGENESIS OF CHF. *Наука и инновация*, 1(15), 115-119.
38. Орипова Озода Олимовна, Самиева Гулноза Уткуровна, Хамидова Фарида Муиновна, & Нарзулаева Умида Рахматуллаевна (2020). Состояние плотности распределения лимфоидных клеток слизистой оболочки гортани и проявления местного иммунитета при хроническом ларингите (анализ секционного материала). *Academy*, (4 (55)), 83-86.
39. Umida Rakhmatulloevna Narzulaeva, & Xamrayeva Muxlisa Farmon qizi. (2023). ETIOPATHOGENESIS OF HEMOLYTIC ANEMIA. *Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing*, 1(1), 1–4. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/5/article/view/26>
40. Нарзулаева, У., Самиева, Г., & Насирова, Ш. (2023). Гемореологические нарушения на ранних стадиях гипертензии в жарком климате. *Журнал биомедицины и практики*, 1(1), 221–225. <https://doi.org/10.26739/2181-9300-2021-1-31>

41. Umida Rakhmatulloevna Narzulaeva. (2023). Important Aspects of Etiology And Pathogenesis of Hemolytic Anemias. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149), 1(7), 179–182. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/817>
42. Нарзулаева, У. Р., Самиева, Г. У., & Насирова, Ш. Ш. (2021). ИССИҚ ИҚЛИМДА КЕЧУВЧИ ГИПЕРТОНИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ БОШЛАНҒИЧ БОСҚИЧЛАРИДА ГЕМОРЕОЛОГИК БУЗИЛИШЛАР. ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ, 6(1).
43. Нарзулаева, У., Самиева, Г., Лапасова, З., & Таирова, С. (2023). Значение диеты в лечении артериальной гипертензии . Журнал биомедицины и практики, 1(3/2), 111–116. <https://doi.org/10.26739/2181-9300-2021-3-98>
44. Narzulaeva Umida Rakhmatulloevna, Samieva Gulnoza Utkurovna, & Ismatova Marguba Shaukatovna (2020). SPECIFICITY OF THE CLINICAL COURSE OF THE INITIAL STAGES OF HYPERTENSION IN ARID ZONES OF UZBEKISTAN AND NON-DRUG APPROACHES TO TREATMENT. Кронос, (4 (43)), 15-17.
45. Umida Raxmatulloevna Narzulaeva, & Mohigul Abdurasulovna Bekkulova (2023). Arterial gipertenziya etiologiyasida dislipidemiyaning xavf omili sifatidagi roli. Science and Education, 4 (2), 415-419.
46. Narzulaeva, U. R., & Samieva, G. U. (2021). Nasirova ShSh. Hemoreological Disorders in The Early Stages Of Hypertension In Hot Climates. Journal of Biomedicine and Practice, 6(1), 221-225.
47. Dilsora Nuriddinovna Juraeva, Umida Rakhmatulloevna Narzulaeva, & Kurbonova Gulbahor Aslamovna. (2022). GENDER DIFFERENCES IN THE PARACLINICAL FEATURES OF THE COURSE OF TRIGEMINAL NEURALGIA. World Bulletin of Public Health, 8, 186-190. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/751>
48. Нарзуллаева, У. Р., Самиева, Г. У., & Пардаева, З. С. (2020). Pathogenetic aspects of verified risk factors such as arterial hypertension and dyslipidemia in the development of chronic heart failure. American Journal of Medicine and Medical Sciences, 10(10), 776-779.
49. Жураева, Д. Н., & Нарзулаева, У. Р. (2020). Эркак ва аёлларда уч шохли нерв невралгияси кечишининг параклиник хусусиятлари. ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 1(1).
50. Narzulyeva, U., & Ismoilova, N. (2023). DETECTION OF EATING BEHAVIOR DISORDERS IN STUDENTS BEFORE THE EXAM USING THE DEBQ QUESTIONNAIRE. Наука и инновация, 1(15), 112-114.

51. Narzulaeva, U. (2023). PATHOGENETIC MECHANISMS OF MICROCIRCULATION DISORDERS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(10), 60–65. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibmscr/article/view/2811>
52. Narzulaeva Umida Rakhmatulloevna and Rakhmatova Fotima Ulugbekovna, “PATHOGENETIC MECHANISMS OF DISORDERS IN THE HEMOSTASIS SYSTEM OBSERVED IN PATIENTS INFECTED WITH COVID-19”, *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 7, no. ICMEI, p. 3, Feb. 2023.
53. Narzulaeva, U. (2023). PATHOGENETIC SIGNIFICANCE OF HYPERLIPIDEMIA IN THE CLINICAL COURSE OF ARTERIAL HYPERTENSION. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 86-91.
54. Narzulaeva, U. (2023). PATHOGENETIC SIGNIFICANCE OF HYPERLIPIDEMIA IN THE CLINICAL COURSE OF ARTERIAL HYPERTENSION. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 86-91.
55. Нарзуллаева, У., Самиева, Г., & Пардаева, З. (2022). ПАТОФИЗИОЛОГИЯ РЕПЕРФУЗИОННОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ МИОКАРДА. *Журнал вестник врача*, 1(2), 155–158. <https://doi.org/10.38095/2181-466X-2020942-154-157>
56. Самиева, Г., Нарзуллаева, У., & Самиев, У. (2023). Течение артериальной гипертензии у жителей засушливого региона. *Каталог монографий*, 1(1), 1–108. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/monographs/article/view/27456>
57. Oripova, O. O., Samieva, G. U., Xamidova, F. M., & Narzulaeva, U. R. (2020). Sostoyanie plotnosti raspredeleniya limfoidnyx kletok slisistoy obolochki gortani va proyavleniya mestno immuna pri xroncheskom laringite (tahlil seksionnogo material). *Akademiya*, (4 (55)), 83-86.
58. Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). GEMOREOLOGIK BUZILISHLAR VA ERITROTSITLAR AGREGATSION XOSSALARI O'ZGARISHINING PATOGENETIK MEXANIZMLARI. *JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE*, 7(6).
59. Кузиева, М. А. (2023). Клиноморфологические Критерии Органов Ротовой Полости При Применении Несъемных Ортопедических Конструкций. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 318-324.
60. Abdusalimovna, K. M. (2024). THE USE OF CERAMIC MATERIALS IN ORTHOPEDIC DENTISTRY.(Literature review). *TADQIQOTLAR*, 31(3), 75-85.
61. Abdusalimovna, K. M. (2024). CLINICAL AND MORPHOLOGICAL FEATURES OF THE USE OF METAL-FREE CERAMIC STRUCTURES. *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR*, 13, 45-48.

62. Abdusalimovna, K. M. (2024). THE ADVANTAGE OF USING ALL-CERAMIC STRUCTURES. *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR*, 13, 49-53.
63. Abdusalimovna, K. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL FEATURES OF THE METHOD OF PREPARATION OF DEPULPATED TEETH FOR PROSTHETICS. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(4), 301-307
64. Abdusalimovna, K. M. (2024). Clinical and Morphological Features of the Use of Non-Removable Orthopedic Structures. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 73-78.
65. Kuzieva, M. A. (2024). CARIOUS INFLAMMATION IN ADOLESCENTS: CAUSES, FEATURES AND PREVENTION. *European Journal of Modern Medicine and Practice*, 4(11), 564-570.
66. Kuzieva, M. A. (2024). Malocclusion–Modern Views, Types and Treatment. *American Journal of Bioscience and Clinical Integrity*, 1(10), 103-109.
67. KUZIEVA, M. A. (2024). MODERN ASPECTS OF MORPHO-FUNCTIONAL DATA AND TREATMENT OF AGE-RELATED CHANGES IN THE MAXILLOFACIAL REGION. *Valeology: International Journal of Medical Anthropology and Bioethics*, 2(09), 126-131.